

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14559392>

Xusanova Sevara Alisherovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada chet tilini o'rganishdagi leksik kompetensiya haqida ma'lumotlar berilgan. Arab tilida B2 darajasidagi til o'rganuvchilar uchun muhim bo'lgan leksik ko'nikmani rivojlantiriysh bo'yicha sinalgan va samarali metodlar keltirilgan. Va albatta, bu meto'dlar asosida arab tilida misollar ham ko'rsatilgan. Bu maqola til o'rganishdagi samaradorlikni oshiradi va uni osonlashtiradi.*

Kalit so'zlar: *leksika, aktiv leksika, passiv leksika, tinglash mashqlari, ko'rish mashqlari, aytish va yozish mashqlari.*

Аннотация: *В статье представлена информация о лексической компетенции в изучении иностранного языка. Представлены эффективные и проверенные методики развития лексических навыков, важных для изучающих арабский язык на уровне B2. И, конечно, есть примеры на арабском языке, основанные на этих методах. Эта статья повысит эффективность и облегчит изучение языка.*

Ключевые слова: *лексика, активная лексика, пассивная лексика, упражнения на аудирование, визуальные упражнения, упражнения на говорение и письмо.*

Abstract: *The article provides information about lexical competence in foreign language learning. Tried and tested methods for the development of lexical skills that are important for Arabic language learners at level B2 are presented. And of course, there are examples in Arabic based on these methods. This article will increase the effectiveness and facilitate the study of language.*

Keywords: *Vocabulary, Active Vocabulary, Passive Vocabulary, Listening Exercises, Visual Exercises, Speaking and Writing Exercises.*

Arab tilini bilish darajasini oshirish uchun albatta bu tildagi leksik kompetensiyaga alohida urg'u berishimiz lozim. **Leksika** atamasi qadimgi yunoncha "leksikos" so'zidan olingan bo'lib, so'z degan ma'noni anglatadi. Tildagi barcha so'zlarning yig'indisi leksika, ya'ni lug'at boyligi deb yuritiladi. Bundan ko'rinib turibdi-ki har bir til o'z leksikasiga ega. Savodli inson avvalo o'z ona tilidagi so'z boyligini rivojlantirishi lozim, ana undan keyin boshqa biron tilni puxta o'rgana oladi va o'rgata oladi. Bunda ona tilida yozilgan badiiy asarlar mutolaa qilish tavsiya etiladi.

"Leksik ko'nikma" terminini metodist olimlar ilmiy izohlab berishgan. S. F. Shatilov "leksik ko'nikmaning ikki qismdan iborat metodik tushunchaligini, ya'ni nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash deb ta'riflaydi. Olim fikricha, bu nutqiy leksik ko'nikma bo'lib, undan tashqari lisoniy leksik ko'nikma ham shakllanadi. So'zni tahlil etish

jarayoni, soʻz yasash, soʻz birikmasini tuzish kabilar leksik materialni ong ishtirokida qoʻllashdek lisoniy leksik koʻnikma nazariy isbotlangan. Demak, leksikaning nutqiy va lisoniy koʻnikmalari maʼlum. [2,158]

Tilda 400-500 ta soʻz yordamida muloqot yuritish mumkin. Maʼlumotli odam ogʻzaki va yozma fikr bayon etish uchun 3000-5000 ta soʻz ishlatadi. Oʻqib va tinglab tushunishda unga qaraganda ancha koʻp soʻzni biladi. Buyuk shoir va yozuvchilar ijodida 20-25 ming soʻz qoʻllanadi (mas. A. Navoiy, U. Shekspir, A. S. Pushkin, A. Qahhor kabilar). [2,146]

Eng koʻp qoʻllaniladigan birinchi minglikdagi soʻzlar oʻrtacha qiyinchilidagi matnning 80 foizi mazmununi tushunib olish imkonini beradi, ikkinchi minglik 8-10 foiz, uchinchi 4 foiz va toʻrtinchi va beshinchi minglik bu imkoniyatni atigi 2 foizga oshiradi. Asosiy ikki mingta soʻz matndan 85-90 foizgacha axborot olish uchun kifoya. Biroq bu yerda gap mavjud ilmiy meʼzonlarga binoan maxsus tanlangan leksika haqida boryapti. Til oʻrganuvchi uchun har bir darajaga mos leksik meʼzonlar oʻrnatilgan. [2,149] Koʻplab arab tili qoʻllanmalarida aynan shu meʼzonlarga asosan leksik koʻnikmalar berib borilgan.

Arab tilini oʻrganuvchi talabaniing til bilish darajasi ortgani sayin, unda yangi va murakkab soʻzlarga boʻlgan ehtiyoj ortib boraveradi. Ayniqsa B2 darajasi meʼzonlariga moʻljallangan leksikalarda talabalar koʻplab qiyinchiliklarga duch keladilar. B2 darajasidagi til oʻrganuvchi oʻz sohasi va eng umumiy mavzular bilan bogʻliq masalalar uchun yaxshi lugʻatga ega boʻlishi darkor. Tez-tez takrorlanmaslik uchun gap foʻrmulasini oʻzgartirishi mumkin, ammo leksik kamchiliklar hali ham ikkilanish va mavzuni aylanib oʻtishga olib keladi. Bunda leksik koʻnikmalarni rivojlantirish uchun maqolada keltirilgan metodlardan foydalanishni tafsiya etamiz.

Leksikani ikki turga ajatishimiz mumkin: **aktiv** (koʻp foydalaniladigan) va **passiv** (kam hollarada foydalaniladigan) leksika. Aktiv leksika badiiy asarlardagi juftnutqdan yoki soʻzlashuv-adabiy nutqning yozilgan fonogrammasidan tanlanadi. Passiv leksika esa, yozma adabiyotdan olingan termalar (parchalar) asosida tanlanadi. B2 darajasida talaba yaxshigina aktiv leksikaga ega va bir muncha passiv leksikalardan ham xabari bor, ammo bu yetarli emas. Bu talabaniing oldida turgan asosiy vazifa passiv leksikani ham rivojlantirishdir.

Leksik koʻnikmani boyitishda diqqatni jamlashdan keyingi orinda assotsiatsiya bu rivojlanishning eng faol omili hisoblanadi. Nufuzli psixologlar assotsiatsiya qonuni fizika sohasidagi tortishish qonuni kabi psixologiya sohasida bir hil rol oʻynaydi, deb taʼkidlaydilar. Bunda xotirani rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu toʻgʻri assotsiatsiyani shakllantira olish qobiliyatidir. [3, 58-59]

Assotsiatsiya - shaxs ongida aks ettirilgan va uning hotirasida mustahkamlangan individual vaziyatlar, faktlar, narsalar yoki hodisalar oʻrtasidagi tabiiy ravishda yuzaga keladigan bogʻliqlik. Soʻz yod olishda arabcha soʻzlarni oʻzingizga tanish boʻlgan biron narsa yoki hodisa bilan assotsiatsiyalash uni yaxshi eslab qolishda yordam beradi. Soʻzning toʻrtta shakliy - **tovush** (fonetikada), **yozilish** (grafikada), **tuzilish** (leksikologiyada) va **grammatik** (morfologiyada) tomonlari oʻrganiladi. Soʻzning bu xususiyatlari uni boshqa bir soʻz bilan

bog'lab uni yod olishga yordam beradi. Masalan: قلب so'zi tovush, ya'ni eshinish jihatidan o'zbekcha qalb so'ziga o'xshash bo'lganligi sababli, uni oson eslab qolish mumkin.

So'zlarni yod olish bo'yicha ko'plab qiziqarli va samarali uslublar mavjud. Shu sababli, bir qancha leksikani boyituvchi mashqlarni ko'rib chiqsak.

Leksik birliklarni **tinglash** mashqlari:

1. Muallim chet tilida aytayotgan narsani ko'rish. Masalan: سبورة so'zini tinglaganimizda sinfxonaning doskasini ko'z oldimizga keltirishimiz lozim.

2. Yangi so'zni mavzuga oid boshqa so'zlar orasidan tinglaganda, tanib olish. Masalan: طبيب، مريض، صيدلي، مستشفى shu kabi so'zlar jamlanmasi yoki turli matnlar audiosini tinglaganimizda orasidan o'zimizga notanish so'zni ajratib olishimiz darkor va uni manosini bilib olgach qayta tinglab so'zni yod olamiz.

3. So'z ta'rifidan uning ma'nosini fahmlab olish. Masalan, keltirilgan sifatga mos so'zni aniqlang:

- لا يحب المشاركة في المناسبات الاجتماعي ويريد أن يكون وحده دائما.

(مغرور، إنطوائي، أناني) [4.23]

Bu gapda tog'ri javob انطوائي ya'ni introvert so'zi. Bu mashq so'zni to'g'ridan-to'g'ri arab tilida yod olishga yordam beradi.

4. Ikki jumlada aytilgan ma'nodosh so'zlarni ona tilida farqlash. Masalan:

- قام (turmoq)

- وقف (turmoq)

Bu ikki so'z ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash, ammo ularni o'z ornida ishlatish lozim.

5. Yasama so'zlarning o'zagini ajratib olish. Masalan: يزرع، زراعة، يزرع، bu so'zlarning o'zagi زرع ya'ni ekmoq so'zidan olingan va ma'no jihatidan bir-biriga yaqin so'zlar.

Leksik birliklarni **ko'rish** mashqlari:

1. Yangi lug'atlarni ko'chirishda ularni alfavit tartibida yozish. Bu usul asosan so'zning bosh harfini oson eslab qolishga yordam beradi.

2. Kitobda keltirilgan so'zlarni ko'proq o'qish. Bunda berilgan so'zlarni kamida 10 marta o'qish tavsiya etiladi. Bu so'z bilan yaxshiroq tanishib olishga yordam beradi.

3. So'zni qaysi vaznda yoki bobda ekanligini aniqlash ham muhim. Masalan: استيقظ so'zi استفعل ya'ni sulosiy mazidning 10-bobida va uyg'onmoq degan ma'noni anglatadi. أيقظ so'zi esa أفعل ya'ni 1-bobda va uyg'otmoq deb tarjima qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sarf ilmini bilish leksik kompetensiyani rivojlanitirishda B2 darajasidagi talaba uchun juda katta ahamiyatga ega.

4. Turli belgilarga (mavzuga taalluqlilik, ma'nodoshlik, tub yoki yasama, konversiya kabi xususiyatlarga) qarab so'zlarni toifalarga bo'lish. Chunki so'zlarni betartib yodlash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shuning uchun bir mavzuga oid so'zlarni birvarakayiga yod olgan ma'qul. Masalan, sport mavzusi:

yugurish	ركض	futbol	كرة القدم
tennis	تنس	basketbol	كرة السلة
boks	ملاكمة	voleybol	كرة الطائرة
suzish	سباحة	ot minish	ركوب الخيل
hokkey	هوكي	shaxmat	شطرنج

5. Gaplarda ko'p ma'noli so'zlarni tanib olish. So'zlarni yod olayotganimizda ko'p ma'noli so'zlar yodimizdan chiqmasligi lozim. Masalan: فتح so'zini olsak, bu so'z quyidagi ma'nolarga ega:

1. ochmoq (mas. eshikni ochdi-فتح الباب)
2. boshlamoq (mas. mavzuni boshladi-فتح الموضوع)
3. bosib olmoq; fath etmoq (mas. mamlakatni fath etdi-فتح البلد)
4. asos solmoq; ta'sis etmoq (mas. yangi qoidalar ta'sis etdi-فتح قواعدا جديدا)
5. gram. fatha harakatini qo'yimoq; undoshni fatha bilan o'qimoq.

Birgina arab tilidagi فتح so'zini yod olib, yuqorida korsatilgan o'rinlarda foydalanishimiz bizga ko'p o'rinlarda qo'l keladi. Hattoki, matnlar o'qiganda tarjima qilishda ham qiyinchiliklar bo'lmaydi.

6 Rasmi kitoblarni mutolaa qilish. Yangi so'zlarga duch kelganda uning suratini ko'rib olish yod olishda samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda bunday kitoblar talaygina.


Leksik birliklarni **aytish** va **yozish** mashqlari:

1. Ko'rib turgan narsalar (yoki ularning tasviri) nomini arab tilida aytish va yozish. Yangi so'zga duch kelganda uni o'sha zahoti talaffuz qilish va yozib olish xotirada tezroq qolishiga yordam beradi.

2. Yangi o'rganilayotgan so'zlar bilan sizga tanish bo'lgan so'zlardan so'z birikmalari hosil qilish. Bu uslub ham sinovdan o'tgan va ishonchli usublardan. Masalan: حائط ya'ni devor so'zini olsak, unga ساعة so'zini izofa ko'rinishida biriktirsak حائط ساعة ya'ni devor soati degan so'z birikmasini hosil qilamiz va bu so'zni yodga olish uchun ساعة so'zini yodga olish kifoya.

3. So'zni qo'llab, og'zaki va yozma gap/gaplar tuzish. Bu usul so'z yod olishdagi eng mashhur va eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda nafaqat so'zni yod olinadi, balki undan qanday vaziyatlarda foydalanish kerakligini mashq qilinadi. Tuzilgan gapning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ustozlardan so'rab olish maqsadga muvofiq.

4. Turli rasmlarni arab tilida bayon qilish va yozish. Masalan, quyidagi rasmga nazar solamiz:



Bu suratda bizga notanish bo'lgan so'zlar ko'p. Suratdagi mayda detallarga ham e'tibor berishimiz lozim. Bu so'zlarni tarjimasini ustozlardan o'rganib, suratni og'zaki bayon qilamiz va uni yozib olamiz. Bu usul hayotiy vaziyatlarda ko'p foydalaniladigan leksik birliklarni tezroq aniqlashga ham yordam beradi.

5. Muallim aytib turgan so'zlarni takrorlash va yozish. Gapnlarni faqatgina tinglashning o'zi kifoya qilmaydi, uni o'zimiz yozib olib ko'proq takrorlashimiz darkor.

Bu mashqlarni bajarishda tartib intizom katta ahamiyatga ega. So'zlarni uzoq muddatga xotirada saqlash uchun ularni tez-tez takrorlash va nutqda qo'llash ham zarur. Bunda so'zlarni avvaliga 3 kun ketma-ket takrorlaymaz. So'ng har oy 1 marttadan takrorlab turish kifoya qiladi. Bunda lug'timizga yangi so'zlarni ham qo'shib borish yodimizdan chiqmasligi kerak.

Yuqorida keltirilgan barcha mashqlar inson ongi so'zlarni oson qabul qilishi uchun yo'lga qo'yilgan. Ammo insonlar bir-birlaridan aqlan va jismonan farq qiladi, shu sababdan har-bir inson ma'lumotni turlicha qabul qiladi. Masalan: kimdir so'zlarni tez yod olsa, kimdir sekin qabul qiladi; kimdir eshitib yod olsa, kimdir yozib yod olishni afzal ko'radi. Bunda yuqorida berilgan uslublardan foydalanib ozimiz uchun qulay va samaralisini aniqlashimiz lozim bo'ladi.

Xulosa: B2 darajasidagi til o'rganuvchilar uchun dolzarb muammolardan biri hisoblangan leksik kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha yetarlicha maslahatlar taqdim etildi. Arab tili leksikaga boy til hisoblanganligi sababli, bu tilda so'z boyligi ortishi bilan bir qatorda, matnlar asl mohiyatini ham tushunish oson bo'ladi. Inson tilni tushunishi osonlashgani sayin unga qiziqishi ortaveradi. Bunda leksik kompetensiyaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Tilning faqatgina grammatikasi bilan cheklanib qolish katta xato. Maqolaning ahamiyati bu xatoni cheklash va so'z boyligini oshirish bo'yicha talabalarning samarali natijalarga erishishini ta'minlashdadir.

ADABIYOTAR:

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg. 2001.
2. Jamol Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent-2012 y.
3. Вильям Волькер Аткинсон. Память и уход за ней. Саратовъ 1908.
4. Sobir Al-Mushrifiy, Suad Al-Xuvaliy, Abu Uvays Mahmud. "At-Takallum". Misr.: Qohira, 2015. – 138-140.
5. Zafar Abdumuminovich Norboyev (2022). ARAB TILIDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YARATILGAN A1 DARAJADAGI O`QUV DASTURLARIGA QO`YILADIGAN TALABLAR. Academic research in educational sciences, 3 (8), 5-11.
6. Norboyev, Z. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISHNING ME'YORIY-USLUBIY ASOSLARI. *ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI*, 1(1).
7. Norboyev, Z. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISHNING ME'YORIY-USLUBIY ASOSLARI. *ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI*, 1(1).